

ZAMONAVIY TIBBIYOTDA ALLERGIK KASALLIKLAR: XAVFLI OMILLARI VA OQIBATLARI

Mirzayeva Mushtariy Uchqunovna

Osiyo xalqaro universiteti, Tibbiyot fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Allergik kasalliklar kundan kunga hayotimizga suv oqimi singari kirib kelmoqda. Ko‘pgina epidemiologik tadqiqotlarga ko‘ra populyatsiyalar orasida bu kasallik ko‘payib hayot faoliyati: ijtimoiy va jismoniy harakatlarning pasayishi, immunitetning tushib boshqa kasalliklarga olib kelishi, nafas olishning buzilishi oqibatida gipoksiya buning natijasida esa yurak kasalliklari oxir oqibat bronxial astma ba’zida o‘lim va nogironlik kelib chiqmoqda. Allergik kasalliklar umumiy aholining 20 – 30 % ini, JSST ma’lumotiga ko‘ra yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning 0,7 – 1,7 % ini tashkil etmoqda. Yoshlar orasida chekuvchilar istemoli ko‘payishi esa chetda qolmay bu kasallik 25 % ga yetganini ko‘rsatmoqda*

Kalit so‘zlar: *Giposensibilizatsiyalovchi, Immun balans, gapten, gipoksiya, antigen moddalar, antigistamin, tashqi muhit, aniq diagnostika.*

Dolzarbli: Global muammolardan biri bu allergik kasallarning kunda kunga ko‘payishi bugungi kunda dolzarb ko‘nishga kelganligida. Bu kasallik turi, kasalliklarga chalinganlar soni oshib borayotgani tufayli diagnostika qo‘yish hali hanuz muammo hisoblanadi. Iqlim sharoiti uning quruqlashuvi, turli xil zavodlar ko‘payishi chekuvchilar iste’moli, immun tizim parhez stollariga amal qilmaslik sabab tushib kasallikka olib kelishi mumkin. Bu tipdagi odamlarning kasalliklari joy, payt, omil tanlamaydi. Zararli omillar ta’sirida birdaniga allergik tanachalar eozinofillar ta’sir etib qo‘zg‘alishi natijasida gipoksiya tufayli bo‘g‘ilib qolishi hushdan ketish ba’zi hollarda o‘tkir nafas yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin. Bu omillar natijasida esa bemorlar soni oshmoqda.

Qo‘zg‘atish sabablari: Inson organizmi allergik kasallikka chalinganda juda sezgir organizm sohibiga ega bo‘ladi. Klinik manzarasi esa qaysi tizim ta’sirlanganiganiga bog‘liq. Tashqi muhit omillari inson organizmiga zarar yetkazmay qo‘ymaydi. Havo changlari inson organizmidagi allergik tanachalarni qo‘zg‘atib salomatligigiga zarar yetkazadi. Ba’zi insonlar esa qizil rangdagi ozuqa mahsulotlarga allergiyasi bo‘lib u shu rangli ozuqa iste’mol qilsa allergiya natijasida bo‘g‘ilib qolishi mumkin. Shuningdek immunitet pasayishi oqibatida ham inson kasallikka chalinish ehtimoli yuqoriroq bo‘ladi.

Strus mevalar, gazli ichimliklar, don mahsulotlari, sigir suti esa asosiy allergik fon o‘chog‘i sanaladi.

Allergik kasalliklarning etiologik omili allergenlardir, asosan oqsil xususiyatiga ega bo‘lgan makromolekulyar tuzilish moddalari, ammo antigenik xususiyatlarga ega bo‘lmagan, ammo tanaga kirganda va to‘qima oqsillari bilan birlashganda ularni olishga qodir bo‘lgan moddalar allergik reaksiyaga sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu moddalar gapten deb ataladi,

ular orasida dorilar, oddiy kimyoviy moddalar, mikroorganizmlarning hujayra membranalarining polisaxaridlari mavjud.

Klinikasi: Kattalar va bolalarda allergiya belgilari qaysi nishon organini zararlaganiga ko‘ra klassifikatsiyalanadi. Allergik dermatozlar quruqlik, qichishish, qichishish, terining qizarishi, allergen bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish joyida yoki butun tanada makulopapulyar yoki boshqa toshmalar bilan tavsiflanadi. O‘tkir allergik reaksiyalar katta pufakchalar paydo bo‘lishi, keyin esa ularning o‘z-o‘zidan ochilishi va ochiq yaralarning shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Labaratorik tekshiruv: Allergik kasalliklar oqimi inson hayotiga juda katta xavf tug‘diradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bemorlar soni oshib borayotganligi sabab diagnoz qo‘yish hali hanuz muammo sanaladi. Bemorni biokimyoviy qon analiz orqali tahlillarni zaruratga qarab tekshiriladi.

- Auskultatsiya – tovush o‘zgarishi orqali kasallikni aniqlash.
- Ko‘krak qafasi rentgenografiyasi- patologik holatlarni rentgen plyonkasiga qayt etish;
- O‘pkalar rentgenoskopiyasi- o‘pka maydonlar tiniqligi ;
- Tomografiya – o‘pkalarni qavatma – qavat rentgen nurlari yordamida tekshirish
- Bronxografiya- bronxlarni tekshirishyoki bemor venoz qoni olinib allergenlarga nisbatan spetsifik IgE mavjudligi va miqdori immunologik usulda Immuno CAP qurilmasida aniqlanadi.

Davolash: Allergik kasalliklarga chalingan bemorlarga parhez stollari tashkil etish , giposensibilizatsiyalovchi preparatlar, yondosh kasallikka chalingan bemorlar bilan masofani saqlashi shart. Allergik kasalliklarga to‘laqonli tashxis hali hanuz topilmaganligi sabab uning qo‘zg‘atuvchisidan uzoqroq yurish inson salomatligiga juda katta unumli ta’sir deyish mumkin. Ayniqsa immun tizim qanchalik kuchli bo‘lsa organizmga tushgan allergenlarni yo‘q qilish xususiyati shuncha yuqori bo‘ladi . Ko‘pincha inson xona havosi toza va nam bo‘lishiga alohida etibor qaratishi , tog‘li hududlar fitonsid ajratuvchi daraxtlar bilan hamroh bo‘lsa kasallik simptonlari biroz pasayadi.

Keyinchalik yosh bolalarda erta kuchli antibiotiklarga o‘rgatmaslik ular o‘rnida ingalatsiyalardan bir necha kun foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki antibiotiklar immun tizim tushishi va organizmni erta-dori darmonga o‘rganib qolish refleksini namon etadi.

Organizmga tushgan allergenlarga antigistamin dori moddalarini ham qo‘llash mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda har bir allergik kasallikka moyilligi bor shaxslar o‘ziga individual e’tibor talab qilishi shifokor nazoratida bo‘lib o‘zini immun tizim faoliyati balansini doimiy miqdorda saqlashi kerak. Allergik kasalliklar zamonaviy dunyoning keng tarqalgan va dolzarb sog‘liq muammolaridan biridir. Ushbu kasalliklarning klinik manzarasi turli xil bo‘lib, bemorlarda teri, nafas olish, oshqozon-ichak tizimi kabi bir qancha tizimlarda sezilarli noqulayliklarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T.A Daminov, B.T. Xalmatova, U.R. Boboyeva “Bolalar kasalliklari”
2. O'.SHaropov, F. G'afforova “Ichki kasalliklar”
3. A.G.Gadayev, M.SH.Karimov, X.S.Axmedov “Ichki kasalliklar propedevtikasi”